Sadikova Yulduz Yakubovna

Toshkent shahar Yangihayot tumani 459- sonli DMTT direktori

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani isloh qilish hamda tarbiyalanuvchini maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalar bilan hamkorlik qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilib berilgan. Maqolada shuningdek, ta'lim-tarbiyani ota-ona bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'ziga xos tomonlari milliy ma'naviy qadriyatlarimiz texnologiyalari asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: bola, sog'lom bola, adaptatsiya, aqliy o'yinlar, xalq amaliy san'ati, oila, mahalla, jamiyat.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan vazifalarimizning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog'lom ona – sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizlarga yaxshi ma'lum. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda».

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari yaratilib, amaliyotda qo'llanilmoqda. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, xususiylashtirilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari va xususiy turli maktab tayyorlov markazlarida bolalarni maktabga tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash yangi omillarni izlab topish, tajriba-sinovlardan o'tkazish asosida amalga oshirish zaruriyatini talab etmoqda. Maktabga tayyorlashda bolalarning ruhiy tayyorgarligi, jismonan sog'lom bo'lishi, muloqotga kira olishi, so'z boyligini (zaxirasini) boyitish, boshlang'ich elementar matematik tushunchalarga ega bo'lishi, yozishga boshlang'ich tayyorgarlik, ayrim so'zlar to'g'risida tasavvurlarni bilishi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa 3-6 yoshli bolaning axborotga ehtiyoji ko'pdir. Bu borada ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan barcha bolalar uchun ijtimoiy adaptatsiya muammosi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bolaning ko'nikish imkoniyatlarini oshirish, uning ijtimoiy aloqalarini kengaytirish bola shaxsining shakllanishi uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Adaptatsiya (lot. adaptatio — moslashuv) – organizmning, masalan, sezgi a'zolarining atrof-muhit sharoitlariga moslashishi, ko'nikishi. Boshqacha aytganda, organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalari shakllanishi xususiyatidir. Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va u ijtimoiy muhitda rivojlana borib uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib) va muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq uning faolligi «bola-kattalar» munosabatlari ichida tartibga solinadi. Ijtimoiy pedagog bolalarning ko'nikish darajasini aniqlashi uchun quyidagi tasnifga tayanishi lozim:

Yengil adaptatsiya – bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Bola DMTT (maktabgacha ta'lim tashkilot)ga qatnay boshlaganidan so'ng bir oy o'tgach, o'zini me'yorda tuta boshlaydi.

O'rta adaptatsiya – bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o'zgarishlar 15-30 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik

https://wordlyknowledge.uz

u o‘z vaznini tiklab oladi. DMTTga qatnay boshlashidan bir oy mobaynida bir marotaba yengil kasallikka chalinishi va 7-10 kun DMTTga kelmasligi mumkin.

Og‘ir adaptatsiya shunda namoyon bo‘ladiki, bolalarda tez-tez qaytadan kasal bo‘lish kuzatiladi va u kasalliklar ba’zi hollarda jiddiy tus olishi mumkin (bronxit, pnevmoniya). Bu holatda adaptatsiya bir oydan ziyod vaqtga cho‘ziladi, rivojlanish va sog‘liq ko‘rsatkichlarida noxush holatlar ham namoyon bo‘ladi. Adaptatsiyaning noxush holatlarini maksimal bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagog 9 oylikdan 1,5 yoshgacha bo‘lgan bolalar mikroijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarni og‘ir o‘tkazishlarini inobatga olishi lozim. Shuningdek, adaptatsiya jarayonini oilaviy tarbiyaning quyidagi kamchiliklari ham og‘irlashtirishi mumkin:

- noto‘g‘ri ovqatlanish;
- bolani noto‘g‘ri belash;
- salbiy odatlar;
- yoshiga mos kelmaydigan ko‘nikmalar. Ijtimoiy pedagog faoliyati uch bosqichdan iborat bo‘lishi kerak: tashxis, tayyorlov, amaliyot. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat talabalari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari va ta’lim tashkiloti psixolik vrachlari tomonidan ijtimoiy-gigienik jihatlarga bag‘ishlangan ishlarda emizikli va maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya davrida bir qator muhim parametrlarni, ya’ni kasallanish, yurishturish, ruhiy rivojlanishidagi o‘zgarishlarni e’tiborga olish kerakligi ta’kidlanadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolani tarbiyalashda ota-onaning ma’suliyati quyidagi tavsiyalarimizda xam asoslab berdik:

1. Ota-onalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida ajdodlarimizning milliy tarbiya merosi (an’analar va urf-odatlar)dan foydalanish usullarini nazariy-pedagogik ishlab chiqish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash jarayonini ilmiy-nazariy asoslash (axloqiy-estetik jihati)

3. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni jonajon o‘lkaning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish» va «Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiya» muammolari bo‘yicha:

«Men dunyoni idrok qilyapman»;

«Jonajon o‘lkaning diqqatga sazovor joylari bilan tanishish»;

«Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash»;

«Aqliy o‘yinlar»;

«Xalq amaliy san’ati»;

«Maktabgacha yoshdagi bolalarga buyuk mutafakkirlar to‘g‘risida hikoyalar» rangli plakatlari, bukletlari yaratish va chiqarish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak-atrofdagi olamning boyliklari va xilma-xilliklari bilan tanishtirish davomida ekologik-estetik omillardan foydalanish xususiyatlarini tadqiq qilish.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda Ota-onalarga metodik yordam berish. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga davlat tomonidan qo‘yiladigan talablar»ni amalga oshirish.

6. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitish hamda ularni maktabga tayyorlash bo‘yicha ota-onalar universiteti»ni tashkil etish va eksperimental tekshirish.

7. Bolalari birinchi marta maktabga borayotgan Ota-onalarga yordam berish. Bolalarni maktabga tayyorlash yuzasidan Ota-onalarning mas’uliyatini oshirish.

8. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga davlat tomonidan qo‘yiladigan talablar»ni amalga oshirish asosida «Ona va bola» muammosi bo‘yicha teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar turkumini tashkil etish.

9. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda mahallaning etnopedagogik imkoniyatlarini o‘rganish, turkumlash va ulardan foydalanish.

https://wordlyknowledge.uz

10. Ota-onalar va tarbiyachilar uchun ko‘rgazmali qo‘llanmalari bo‘lgan quyidagi uslubiy tavsiyanomalarni ishlab chiqish:

«Bolalarga O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari to‘g‘risida hikoyalar»;

«Maktabgacha yoshdagi bolalarga buyuk mutafakkirlar to‘g‘risida hikoyalar»;

«Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiya».

11. Quyidagilar bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish:

maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolalari bor onalarga bolalarni maktabga tayyorlash uchun ish joyida har oyda bir kundan vaqt berish;

maktabgacha yoshdagi bolalari bo‘lgan Ota-onalar tomonidan sanatoriy va profilaktoriylarga yo‘llanmalarni imtiyozli shartlarda sotib olish;

Ota-onalar va maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy-ma’rifiy muassasalar (teatrlar, muzeylar, hayvonot bog‘lari, diqqatga sazovor joylar)ga imtiyozli tartibda borishini tashkil etish.

12. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘rgatish uchun milliy musiqa asboblari sotib olish

13. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ularni maktabga tayyorlash bo‘yicha qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini tashkil etish.

14. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun «Onajonim, suratingni chizaman» mavzuida respublika tanlovini o‘tkazish.

15. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun aqliy o‘yinlar turkumini ishlab chiqish va chiqarishga tayyorlash.

16. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun «Sehrli harflar shaharchasi» maxsus teleko‘rsatuvini tashkil etish.

17. Bolalarni tarbiyalash bo‘yicha Ibn Sino maslahat markazini tashkil etish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda quyidagi yo‘llar bilan qo‘g‘irchoq teatrlari rolini kuchaytirish va kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish:

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan qo‘g‘irchoq teatrlarining tuman (shahar), viloyat va respublika tanlovlarini o‘tkazish; eng yaxshi qo‘g‘irchoq spektakllari yozib olingan videoroliklar komplektini tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachilari va Ota-onalar uchun ularning ssenariylari va ushbu spektakllarga qo‘g‘irchoqlar tayyorlash bo‘yicha metodik tavsiyalar bilan birgalikdagi qo‘llanmalarni nashr etish;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan qamrab olinmagan bolalar uchun mahalla huzurida qo‘g‘irchoq teatrlari shoxobchalari tashkil etish, bunda ushbu janr uchun xos bo‘lgan milliy tajriba va xalq an’analaridan keng foydalanish.

Xulosa shuki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda oilada, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topish, oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash lozim. Qolaversa oila, mahalla va jamiyat yacheykasi hisoblanadi. Aynan bugungi kunda eng katta dolzarb masalalardan biri mahallaning jamiyatdagi mavqeyini kuchaytirish lozim. Mahalla bu fuqarolik jamiyatini isloh qiluvchi institutlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu sababdan mahalla ta’lim-tarbiya masalalarini isloh qilishda va ta’lim – tarbiya tashkilotlariga har tomonlama ko‘mak berishga e’tiborlarini kuchaytirish lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” O‘zbekiston. 2017

2.Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” O‘zbekiston. 2017

3.Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” O‘zbekiston. 2017

https://wordlyknowledge.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019 yil 8 may PQ-4312 sonli qarori.

5. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. - T.: 2009.

Internet materiallari.

mdo.uz

WORDLY
KNOWLEDGE